

ZAMONAVIY OFISER-PEDAGOG FAOLIYATI SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ochilov To'ra Yoqubovich

*O'R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabining moddiy-texnik
ta'minot kafedrası texnik tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, podpolkovnik,
Samarqand shahri*

Annotasiya: Ushbu maqolamda zamonaviy pedogogiklarni rivojlantirish va pedogogik nazariyasi bo'yicha qisqa kerakli bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Xar bir pedogog o'zgani o'qitish bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki ular bilan o'zi ham o'qishi kerak.

Kalit so'zlar: tadqiqot, pedogog, fan, ilm, jarayon, tarbiya, qonun.

Shu nuqtai nazardan kunda – kunaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilni bejizga **“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim”** yili deb nomlanishi ham hukumat darajasida chiqayotgan hamda ijtimoiy – iqtisodiy tarmoqlar rivojiga qaratilgan farmon va qarorlarning ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, ta'lim, xususan, oliy ta'limga qaratilayotgan e'tibor ushbu o'zgarishlarning bir bo'lagi, xolos. Chunki ta'lim zamon shiddatidan ortda qolmasligi, balki undan oldinda yurishi zarurligi umume'tirof etilgan ta'lim va taraqqiyot tamoyilining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bu narsa yangi oliy o'quv muassasalari

va ta'lim yo'nalishlarining yaratilishi, o'quv dasturlarining esa zamon talablariga moslab o'zgartirilishida o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Tabiiyki, oliy harbiy ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Shu ma'noda gumanitar fan vakili sifatida ushbu fanlarni kursant va tinglovchilarga o'qitish tizimida ba'zi bir o'zgarishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman, toki zamondan ortda qolmaylik. Bu narsa yana shuning uchun ham muhimki, oliy harbiy ta'lim tizimidagi ko'pgina fanlar ofiser – mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgani holda, ijtimoiy – gumanitar fanlar esa ofiser – shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, tabiiyki, har bir ustoz o'zi uchun ajratilgan mashg'ulot vaqtida tinglovchilarga ko'proq ma'lumot yetkazishga harakat qiladi. Chunki har bir kunimiz ortga qaytmas bo'lib ketishini hammamiz yaxshi anglaymiz. Mana shu joyda o'z kuzatuvlarim asosida chiqargan bir xulosamni siz bilan o'rtoqlashishni xohlayman. Gap shundaki, yangilikka intilish yaxshi, ammo bu yerda ham bir xavf bor – toki yangilik yarataman deb, yaxshi narsalardan mahrum bo'lmaslik kerak.

Masalan, o'tgan 90 – yillarning oxirlarida ta'limga interfaol usullarni joriy etish bahonasida, bu jabhada juda ham samarali bo'lgan an'anaviy ta'lim usullaridan mahrum bo'ldik; vaholanki, interfaol usullarni ma'lum bir meyor doirasida va an'anaviy ta'lim usullariga tayanib qo'llagandagina ijobiy samara



beradi.

Qolaversa, har qanday islohot, u xoh ijtimoiy – iqtisodiy, xoh siyosiy – ma’naviy sohada bo’lsin, eng avvalo, insonni, uning ongu tafakkurini o’zgartirishga qaratilgan bo’ladi. Xo’sh, bu sohadagi ahvolni yaxshilash uchun nima qilmoq kerak? Fikrimizcha bu ishni fanlarni harbiylashtirishdan, ya’ni ularni harbiy hayotga yaqinlashtirishdan boshlagan ma’qul. Bu vazifani falsafadan psixologiyagacha bo’lgan o’quv predmetlarining barchasida amalga oshirish zarur.

Xo’sh, fanlarni harbiylashtirish deganda nimalar nazarda tutiladi? Agar hali – hanuz ba’zi fanlarni o’qitishda fuqaro oliy o’quv yurtlari talabalari uchun chiqarilgan darslik va o’quv qo’llanmalaridan foydalanilayotganligini e’tiborga oladigan bo’lsak, avvalo harbiy xizmat shart – sharoitlarini hisobga olgan holda yangi darslik va o’quv qo’llanmalari yaratishimiz lozimligi anglashiladi. Bunda, albatta, harbiy xizmatga xos bo’lgan xususiyatlar – uning ichki qonunlar bo’lgan umumharbiy nizomlarga asoslanishi, faoliyatning ekstremal vaziyatlarda kechishi, murakkabligi nazarda tutilishi lozim. Masalan, falsafa fani o’quv dasturiga “Urush va tinchlik” mavzusini kiritish, turli falsafiy qonun va kategoriyalarga asoslanib, bu mushtarak tushunchalarni har tomonlama falsafiy – mantiqiy tahlil qilish bo’ljak komandirlarda o’zlari mansub bo’lgan faoliyat muhitini yaxshiroq idrok etishlariga, uning zohiran ko’zga tashlanavermaydigan tomonlarini tushunib yetishlariga yordam beradi. Agar iqtisodiyot nazariyasi faniga ham shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo’lsak, bu predmet doirasida fanga oid umumnazariy qoidalarni qisqaroq bergan holda, asosiy e’tiborni harbiy xo’jalik ishlarini tashkil etish masalalariga qaratsak, maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki ofiser avvalo komandir – menejer sifatida o’z qo’lostidagi harbiy xo’jalikning iqtisodiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Shuningdek, bunday bilimlar harbiy xizmatchilarga o’zlarining shaxsiy uy – ro’zg’or ishlarini samarali tashkil etishlarida yordam berishiga shubha yo’q.

Qolaversa, har qanday harbiy bo’linma hayot – faoliyati u joylashgan mahalliy hududdagi ijtimoiy – xo’jalik tuzilmalari bilan ma’lum bir iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo’shilgan bo’ladi. Bu, ayniqsa, mamlakatimizda harbiy – sanoat majmuasini yaratish ishlari olib borilayotgan bir vaqtda mohiyat e’tibori bilan katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, madaniyatshunoslik fanini o’qitish uslubiyatida ham jiddiy o’zgarishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman. Bu fan bo’yicha amaldagi o’quv dasturida har bir mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotidan so’ng, kursantlar bilimini mustahkamlash va baholash uchun seminar mashg’uloti o’tkazish ko’zda tutilgan. Boshqachasiga aytganda, barcha mashg’ulotlar nazariy xarakterga ega. Bu esa kursantlarning mustahkam bilim olishlariga monelik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa, har uchta ma’ruza mashg’ulotlaridan so’ng kamida 6 soatlik amaliy mashg’ulotlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq, deb o’ylayman. Masalan, “Sharq uyg’onish davri madaniyati” hamda “Temuriylar davri madaniyati”



singari ma'ruza mashg'ulotlaridan so'ng, poytaxtimizdagi turli muzey va boshqa madaniyat maskanlariga ekskursiyalar tashkillashtirish, teatrlarga tashrif buyurish mumkin. Natijada kursant va tinglovchilarimiz madaniy hayot to'g'risidagi ma'lumotlarni tinglabgina qolmasdan, balki uning bevosita va bilvosita ishtirokchisiga ham aylanishadi.

Ayniqsa, psixologiya fanlarini o'qitish doirasida o'quv – uslubiy va ilmiy jihatdan amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar ko'lami ancha salmoqli. Bu sohadagi o'quv adabiyotlarining, xususan, davlat tilidagilarining kamligi masalaning birgina tomoni xolos. Asosiysi – ilmiy – tadqiqot ishlarining mutlaqo olib borilmayotganligi. Chunki milliy mentalitet hamda mahalliy va harbiy xizmat shart – sharoitlarini e'tiborga olib amalga oshirilgan tadqiqot va o'rganishlar asosidagina harbiy xizmatchilar uchun amaliy ahamiyatga molik tavsiya va xulosalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Yaqinda bilim yurtimizda psixologiya fanlari uchun ajratilgan o'quv soatlarining qisqartirilganligi kafedramiz jamoasi o'z oldiga qo'ygan ba'zi bir ijodiy ishlarimizni amalga oshirishimizga monelik qilmoqda. Gap shundaki, biz o'quv dasturlariga boshqaruv psixologiyasi hamda kursantlarda liderlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus kurslarni kiritishni rejalashtirib yuruvdik. Bu bo'lajak ofiserlarda ularning komandirlik faoliyatlarida asqotadigan boshqaruvchilik va liderlik sifatlarini shakllantirish uchun ham zarur. Bunday mashg'ulotlar vaqtida kursant va tinglovchilarga insho yozishni tavsiya etish ham mumkin. Bu ishlar kitobxonlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bir vaqtda yaxshi samara berishiga shubha yo'q.

To'g'risi, anchadan buyon bu haqda o'ylab yurgandim, yaqinda esa taniqli olimlarimizning shunga monand fikrlari bilan tanishgach, bu fikrim yanayam qat'iylashdi. "Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida, - deydi adabiyotshunos Shuhrat Rizayev, - matematika, iqtisod, demografiya, falsafa kabi fanlar o'qitiladi – yu, ular safiga adabiyot, mutoaala san'ati singari fanlar qo'shilmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak dunyoda va mamlakatimizda kechayotgan shiddatli o'zgarish va rivojlanishlarga mos ravishda har bir kun va soatning qadr – qimmatini oshgandan oshib bormoqda. Shunday ekan, hayot oldimizga qo'yayotgan talablarni vaqtida ta'lim jarayoniga tadbiq etsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Deyl Karnegi. O'z – o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2023 yil.
2. Nasriddinov Ch. Harbiy psixologiya. T. "Fan" nashriyoti, 2021 yil.
3. Usmonboyeva M.A. Kreativ pedagogika asoslari /O'quv-uslubiy majmua. – T.: Modul, 2024. – 156 b.

